

# **MoneyGram Goal shartlari va kafolat shakli**

## **MONEYGRAM GOAL FUTBOL MATCHLARI QOIDALARI**

### **1. 1-QOIDA – UMUMIY QATNASHUV**

- 1.1. Barcha jamoalar va o'yinchilar ushbu hujjatda keltirilgan qoidalar va shartlarga amal qilishlari shart.
- 1.2. Barcha o'yinchilar 18 yoshdan katta bo'lishlari lozim

### **2. 2-QOIDA – O'YIN MAYDONI**

- 2.1. "Yongsan Adidas Futsal" maydonidagi qoplama sun'iy bo'lib 5x5 o'yinchiga mo'ljallangan.
- 2.2. O'yin maydoni uzunligi 68 metr va eni 34 metr.

### **3. 3-QOIDA – EKIPIROVKA**

- 3.1. Barcha o'yinchilar oyoq kiyim kiyishlari shart (krossovka/butsi) (metal tishlarga ruxsat yo'q)
- 3.2. Forma - Qatnashuvchi jamoalar DPM Events tomonidan taqdim etilgan formani kiyishlari lozim

### **4. 4-QOIDA - O'YINCHILAR, JAMOALAR TARKIBI VA ZAHIRA O'YINCHILARI**

- 4.1. Har bir jamoada beshta (5) o'yinchi bo'lishi va zaxira o'yinchilari ham beshtadan (5) oshmasligi kerak
- 4.2. Maydonda aniq belgilab qo'yilgan jarima maydonchasi ichida qo'llaridan foydalanishi mumkin bo'lgan darvozabon tayinlanadi.
- 4.3. Zaxira o'yinchilariga almashtirish maxsus "O'yinchilarni almashtirish hududida" tezda amalga oshiriladi. Zaxiradan o'yinga qo'shilayotganlar chiqib ketayotgan o'yinchilar maydonni tark etgandan keyingina maxsus "O'yinchilarni almashtirish hududi" orqali kirishlari mumkin - qarorni jamoa sardori qabul qiladi.

### **5. 5-QOIDA - O'YIN**

- 5.1. Tanga tashlash - Yutgan tomon o'yinni boshlab beradi.
- 5.2. O'yin yarim taym tanaffussiz 12 daqiqa mobaynida uzluksiz davom etadi.
- 5.3. Qo'shimcha taym faqat pley-off bahslarida o'ynaladi. Birinchi gol urgan g'alaba qozonadi
- 5.4. O'yin maydon markazidan, hakamning hushtagi chalinib to'p o'yinga kiritilishi bilan boshlanadi.
- 5.5. To'p o'yinga kiritilganda oldinga tepilishi lozim.
- 5.6. To'p o'yinga kiritib berilayotganda raqib o'yinchilari to'pdan kamida 2 metr uzoqlikda bo'lishlari lozim
- 5.7. Barcha erkin zarbalar to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladi. Erkin zarbada to'p har qanday yo'nalishda tepilishi mumkin.
- 5.8. O'yinchi erkin zarba berayotganda barcha raqib o'yinchilar to'p tepilgunga qadar kamida 2 metr uzoqlikda turishlari lozim.
- 5.9. Qo'shimcha taymdan keyin ham hisob durrang bo'lgan taqdirdagina penalti tepiladi, boshqa holatlarda penalti tepilmaydi. Har ikkala jamoa ham beshtadan penalti tepishlari mumkin bo'ladi va eng ko'p gol urgan g'alaba qozonadi, agar shunda ham g'olib aniqlanmasa jamoalar birinchi jamoa gol urolmagunga qadar penalti tepaveradilar.

### **6. 6-QOIDA - GOL URISH**

- 6.1. Gol darvoza chizig'ini to'liq kesib o'tgandagina hisobga olinadi, to'p har qanday jamoa vakillari tomonidan darvozaga qo'l bilan otish yoki olib kirilish orqali kiritilgan holatlar bundan mustasno.
- 6.2. O'yin to'p o'tkazib yuborgan jamoa tomonidan to'pni maydon markazidan o'yinga kiritish orqali davom ettiriladi.

## **7. 7-QOIDA - MAYDONDAN TASHQARIDA**

- 7.1. To'p maydonni tark etganda, o'yin to'pni u maydonning yon chizig'i yoki orqa chizig'ini kesib o'tgan nuqtadan tepib kiritish orqali qayta boshlanadi.

To'pga eng oxiri tekkan jamoa to'pni tepish uchun raqib jamoaga topshiradi.

## **8. 8-QOIDA - QO'POLLIKLAR VA QOIDABUZARLIK**

- 8.1. O'yinchi raqib jamoa vakili yoki rasmiy shaxsga ataylab tuflesa, tepsa, ursa, itarsa, chalsa yoki shunga harakat qilsa jazolanadi.

- OQIBATLARI: Qoidabuzar o'yinchi 2 daqiqaga maydondan chetlatiladi, bu vaqtda zaxiradan hech kim tushmaydi va to'g'ridan-to'g'i bo'lmagan jarima zarbasi belgilanadi.

- 8.2. To'pni qo'li bilan ataylab o'ynagan har qanday o'yinchi jazolanadi.

- OQIBATLARI: Qoidabuzar o'yinchi 2 daqiqaga maydondan chetlatiladi, bu vaqtda zaxiradan hech kim tushmaydi va to'g'ridan-to'g'i bo'lmagan jarima zarbasi belgilanadi.

- 8.3. Raqibni maydondan tashqariga itarib yuborish.

- OQIBATLARI: Qoidabuzar o'yinchi 2 daqiqaga maydondan chetlatiladi, bu vaqtda zaxiradan hech kim tushmaydi va to'g'ridan-to'g'i bo'lmagan jarima zarbasi belgilanadi.

## **9. 9-QOIDA - QOIDABUZARLIK YOKI URUSHGA OID HARAKATLAR**

- 9.1. Biror o'yinchi maydondan chetlatilsa (sariq karta olgan holda), jamoa 2 daqiqa davomida kamchilik bo'lib o'ynaydi. O'yinchi maydonni darhol tark etishi lozim.

- 9.2. Agar chetlatish asosiy vaqt tugashiga 2 daqiqadan kam vaqt qolganda yuz bersa, qolgan jazo vaqti keyingi o'yinga o'tkazilmaydi.

- 9.3. Agar o'yinchiga o'yin davomida to'g'ridan-to'g'ri qizil karta ko'rsatilgan bo'lsa, u o'sha o'yinda maydonni tark etadi va keyingi o'yinni ham o'tkazib yuboradi.

- 9.4. Agar o'yinchi o'yin davomida ikki marta maydondan chetlatilgan bo'lsa (ikkita sariq karta), u qolgan vaqt davomida maydonga qaytib kirmaydi yoki keyingi o'yinda ishtirok etmasligi mumkin.

## **10. 10-QOIDA - TURNIR OCHKOLARI**

- 10.1. G'olib jamoa 3 ochkoga ega bo'ladi. Yutkazgan jamoaga 0 ochko beriladi. Durrang bo'lganda har bir jamoa 1 ochko sohibi bo'ladi

- 10.2. Jamoaning guruhdagi o'rnini belgilaydigan mezonlar

- a) ochkolar soni
- b) gollar farqi (urilgan - o'tkazib yuborilgan)
- c) urilgan gollar soni
- d) o'zaro uchrashuvlar (durrang bo'lgan taqdirda birinchi gol urgan jamoa foydasiga).

## **11. TURNIRNING MUKOFOT JAMG'ARMASI**

- 11.1. g'olib jamoalar uchun umumiy mukofot jamg'armasi 3000 AQSH dollarini tashkil qiladi.

- 11.2. Pullar har bir jamoaga musobaqadan so'ng 7 kun ichida to'lab beriladi.

## “B” ILOVA

### MoneyGram Goal musobaqasida qatnashish shartlari

#### 1. Qatnashuv

- 1.1 MoneyGram Goal futbol matchlarida (har biri **Moneygram Goal** deb ataladi) qatnashishni boshqaruvchi ushbu shartlar imzo chekuvchi (“**siz**”) va DPM Event Management LLC o’rtasida tuzilgan shartnomani tashkil etadi. (“**DPM Events**”).
- 1.2 Siz ushbu musobaqada faqatgina ushbu shartnomani imzolagan holdagina qatnashishingiz mumkin. Agar 18 yoshdan kichik bo’lsangiz ota-onangiz ruxsati talab etiladi. DPM Events talab qilganidek ota-onalar roziligini olmaslik DPM Events tomonidan shartnoma bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.
- 1.3 Har bir futbolchiga DPM Events turniri qoidalari topshiriladi. Mazkur shartnomaga imzo qo’yish orqali siz ushbu qoidalarga rioya qilishga rozilik bildirasiz.

#### 2. Ro’yxatga olish

- 2.1 Ro’yxatga olish MoneyGram Agent nuqtalari orqali yoki taqdim etilgan telefon raqami orqali amalga oshirilishi mumkin. Siz kamida yettita va ko’pi bilan o’nta futbolchidan iborat jamoani ro’yxatdan o’tkazishingiz kerak. Barcha futbolchilar ushbu shartnomaga alohida imzo qo’yishlari kerak.
- 2.2 18 yoshdan yuqori bo’lgan shaxslarigina MoneyGram Goal turnirida ishtirok etishlari mumkin.
- 2.3 DPM Events ishtirok etadigan jamoalar sonini cheklash huquqini o’zida saqlab qoladi. DPM Events o’z xohishiga ko’ra ushbu shartnomani bekor qilish orqali har qanday arizani rad etish huquqini o’zida saqlab qoladi.
- 2.4 DPM Events har qanday turdagi texnik, apparatura yoki dasturiy ta’minotdagi xatolar, uzilgan yoki mavjud bo’lmagan tarmoq ulanishlari yoki muvaffaqiyatsiz amalga oshirilgan, to’liqsiz, buzilgan yoki kechiktirilgan kompyuter/internet uzatmalarini yoki DPM Events tomonidan to’liq to’ldirilgan Registratsiya shaklini qabul qilishiga to’sqinlik qiladigan har qanday xato va nosozliklar uchun mas’ul emas.
- 2.5 Joy ajratilgan barcha jamoalar e-pochta, telefon yoki pochta orqali tasdiqlash yo’li bilan xabardor qilinadi.

#### 3. Ishtirokchining deklaratsiyasi, tasdiqlovi va majburiyatlari

- 3.1 Turnirda ishtirok etishda xavf-xatarlar mavjudligini hamda futbol turnirida qatnashish o’yinchilarning o’yin qoidalari rioya qilishlariga qaramay, baxtsiz hodisalar va jarohatlarni ham ichiga olishi mumkinligini tasdiqlaysiz.
- 3.2 Siz uchinchi tomonlar, xususan, siz noto’g’ri o’ynash orqali jarohat yetkazgan shaxslar tomonidan sizga qarshi da’vo qilinishi mumkinligini tasdiqlaysiz
- 3.3 Siz quyidagilarni tasdiqlaysiz:
  - (i) sizda shaxsiy javobgarlik sug’urtasi va salomatlik sug’urtasi mavjudligini hamda siz bunday sug’urta bilan ta’minlash bo’yicha DPM Events’ga nisbatan hech qanday da’vongiz yo’qligini tasdiqlaysiz;
  - (ii) turnirga giyohvand moddalar yoki ruxsat etilmagan ish faoliyatini oshiruvchi moddalar yoki noqonuniy bo’lgan boshqa moddalarni olib kelmaysiz va ulardan ishtirok etish vaqtida foydalanmaysiz;
  - (iii) MoneyGram Goal’da ishtirok etish uchun yaxshi jismoniy holatda bo’lasiz;
  - (iv) DPM Events yoki MoneyGram Goal’ga tegishli biron-bir veb-sayt yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida behayo, noqonuniy, shafqatsiz, haqoratli, uchinchi shaxslarning intellektual mulkiga yoki boshqa qonuniy huquqlarga zid bo’lgan biron-bir matn, bayonot, fotosurat yoki boshqa materiallarni chop etmaysiz yoki yoymaysiz. DPM Events biron bir ma’lumotni o’z ixtiyoriga ko’ra olib tashlash huquqiga ega bo’ladi.
- 3.4 Siz tanlagan yoki foydalanadigan jamoa nomi uchinchi tomonning intellektual mulkini buzmasligiga kafolat berasiz.
- 3.5 Siz DPM Eventga sizning MoneyGram Goal’da ishtirok etishingiz bilan bog’liq shaxsiy ma’lumotlaringizni mavjud ma’lumotlarni himoya qilish bo’yicha qonun va qoidalarga muvofiq ruxsat berasiz.
- 3.6 Turnirdagi har bir uchrashuvga qilgan safarlaringizda ro’y berishi mumkin bo’lgan xavf-xatarlarni o’z bo’yningizga olasiz.
- 3.7 Turnirdagi har bir uchrashuvdagi ehtimoliy harajatlarni o’z bo’yningizga olasiz.
- 3.8 Siz MoneyGram Goal’da o’z xohishingizga ko’ra ishtirok etayotganingizni va shikastlanish xavfi mavjudligini to’liq tushunishingizni tan olasiz.
- 3.9 Favqulodda vaziyatlarda birinchi va tibbiy yordamni to’g’ri boshqarishni ta’minlash uchun zarur bo’lgan har qanday birinchi yordam yoki tibbiy davolanishga, shuningdek, bunday baxtsiz hodisalar, shikastlanishlar yoki kasalliklar bilan bog’liq zarur tashish ishlariga ruxsat berasiz. Siz musobaqa o’tkazilayotgan joydan tashqarida davolanish yoki

transport xarajatlarga javobgar bo'lasiz. MoneyGram Goal musobaqasida ishtirok etish natijasida kelib chiqqan jarohatlarga nisbatan DPM Events va MoneyGram'ga qarshi da'vo qilish huquqidan voz kechasiz va birinchi yordam yoki shifoxonaga olib borish, shu jumladan, barcha xarajatlar uchun o'zingiz javobgar ekaningizni tan olasiz hamda tibbiy muassasaga borganda parvarishni ta'minlash uchun ham mas'ul bo'lasiz.

#### 4. Mukofotlar va chetlatish

- 4.1 MoneyGram Goal turniri DPM Events tomonidan tashkillashtirildi. DPM Events g'oliblarga sovrinlarni topshiradi. DPM Events sovrinlarni va ularning turlarini o'zgartirishga haqli. Faqat g'olibgina sovrinni qo'lga kiritish huquqiga ega va ushbu maxsus sovrin uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas.
- 4.2 DPM Events MoneyGram Goal turnirlarining vaqtini, joylashuvini yoki formatini o'zgartirish huquqini o'zida qoldiradi va bunday turnirlarni to'liq yoki qisman bekor qilishi yoki cheklashi mumkin. DPM Events sizni bunday o'zgarishlar bo'lgan taqdirda xabardor qiladi.
- 4.3 DPM Events jamoalar yoki individual jamoa a'zolarini turnirlarda yoki turnirlar davomida chetlatish huquqini o'zida saqlab qoladi agar:
  - (i) shaxslar yoki barcha jamoa a'zolari o'zlari to'g'risida noto'g'ri ma'lumot bersalar;
  - (ii) shaxslar yoki barcha jamoa a'zolari 18 yoshdan kichik bo'lsalar va ota-ona roziligi haqida noto'g'ri ma'lumot bersalar;
  - (iii) giyohvand moddalar yoki boshqa ruxsat etilmagan ish faoliyatini oshiruvchi moddalar yoki boshqa noqonuniy moddalar jamoa a'zosi yoki barcha jamoa a'zolari tomonidan iste'mol qilingan yoki uchinchi tomonga taqdim etilgan bo'lsa;
  - (iv) jamoa a'zolari bunday tadbirda qatnashish uchun xatardan holi bo'lmasalar;
  - (v) shaxslar va/yoki jamoa a'zolari ushbu shartnoma shartlarini buzsalar;
  - (vi) jamoalarning biror a'zosi turnir qoidalarini bir necha marta qo'pol buzsa
  - (vii) jamoa a'zolarining biri yoki barcha jamoa a'zolarining xulq-atvori turnir faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatganda;
  - (viii) Yana bir muhim sabab borki bu kabi chetlatishni talab qiladi.
- 4.4 DPM Events jamoaning nomlari uchinchi tomonning intellektual mulk huquqlarini poymol etishi yoki buzishi mumkin bo'lgan jamoalarning nomlarini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 4.5 Futbol – bu jamoaviy sport. Chetlatish nafaqat alohida jamoa a'zosiga, balki butun jamoaga ta'sir qilishi mumkin. O'zingizning harakatlaringiz chetlatish uchun asos bo'lmasa ham, butun jamoangiz chetlatilishi mumkinligini tasdiqlaysiz.
- 4.6 Siz DPM Events, uning xodimlari yoki pudratchilarning ko'rsatmalariga amal qilish va turnir davomida doimo o'zingizni to'g'ri tutishga rozilik bildirasiz.

#### 5. Reklama va ochiqlik

- 5.1 DPM Events turnir g'oliblarini omma oldida taqdirlash va e'lon qilish niyatida. Bu filmlar, televideniye, radio, matbuot nashrlari, Internet, mobil telefon xizmatlari, e'lonlar va promoushn tadbirlardagi reklama kabi barcha ommaviy axborot vositalarida xabar tarqatish va reklama qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. MoneyGram Goal turnirini amalga oshirishda, reklama MoneyGram Goal, MoneyGram mahsulotlari yoki savdo belgilari, shuningdek MoneyGramga aloqador hamkorlarining mahsulotlari va savdo belgilarini reklamasini o'z ichiga olishi lozim va bu bilan cheklanmaydi.

Siz shunga mos ravishda DPM Events'ga quyidagi huquqlarni taqdim qilishga rozi bo'lasiz:

- (i) Siz DPM Events'ga o'z ixtiyoringiz bilan reklama yoki ommaviy axborot vositalarida yoritish maqsadida nomingiz, imzoingiz va boshqa shaxsiy nomlaringizni va jamoangizning nomini ishlatish uchun eksklyuziv, to'liq va cheksiz huquqlarni taqdim etasiz;
- (ii) Siz DPM Events'ga MoneyGram Goal va shu asnodan tashkil etiladigan har qanday reklama aksiyalari uchun fotosuratlar va/yoki kino yozuvlar va/yoki ovoz yozuvlaringizni ishlab chiqarish va taqdim etishga hamda ushbu fotosuratlar va/yoki filmlar va/yoki ovozli yozuvlarni asl nusxada yoki o'zgartirgan holda, to'liq yoki qisman ishlatish uchun, reklama maqsadlarida yoki bosmada, jumladan, kino, video/DVD, televizion, radio, bosma nashrlarda va Internetda, jumladan, reklama yoki ommaviy axborot vositalari veb-sayt sahifalarida, e-pochtada va uyali telefon xizmatlarida foydalanish uchun eksklyuziv, to'liq va cheksiz huquqlarni taqdim etasiz; va
- (iii) Siz DPM Events'ga rozilik asnosida MoneyGram Goal turniri doirasida va keyingi reklama tadbirlarida siz bilan suhbatlashish uchun eksklyuziv, to'liq va cheksiz huquqingizni taqdim etasiz.

DPM Events'ga ushbu huquqlarni uchinchi shaxslarga o'tkazish ruxsat beriladi. DPM Events'ga beriladigan "eksklyuziv" huquqlar siz yoki uchinchi tomonlar ushbu huquqlardan foydalana olmasligingizdan dalolat beradi.

- 5.2 Turnirdan yakuniga yetgandan so'ng biron bir reklama tadbirlarida qatnashish uchun imkon darajasida tayyor bo'lishingiz lozim.

## 6. Javobgarlik va kafolat

- 6.1 DPM Events o'zining e'tiborsizligi natijasida sodir bo'lgan jarohatlanish yoki o'lim uchun oldingizda javobgar bo'lmaydi. DPM Events tomonidan boshqa har qanday javobgarlik istisno qilinadi va DPM Events, jumladan, MoneyGram Goal turniri yoki uning natijasida ro'y bergan har qanday jarohatga taalluqli tibbiy xarajatlarni bo'yniga olmasligini tasdiqlaydi va bu istisno holati qonun tomonidan ruxsat etilgan maksimal darajada amal qiladi.
- 6.2 Siz quyidagilar bo'yicha DPM Events'ni zararlardan asrashga kafolat berishingiz, zarar yetkazmasligingiz va zararlarni qoplashingiz lozim:
- (i) umumiy zararlar; va/yoki
  - (ii) sizning MoneyGram Goal turnirida ishtirok etishingiz bo'yicha yoki shartnoma shartlarini buzganligingiz;
- natijasida DPM Events tomonidan
- (i) uchinchi tomonga to'lanadigan yoki to'langan barcha xarajatlar (jumladan, qonuniy xarajatlar).
  - (ii) jamoangiz nomini tanlash va ishlatish natijasida ushbu uchinchi tomonning huquqlari buzilganligi sababli (jumladan, intellektual mulk huquqi, ismlar va tovar belgilari).

## 7. Umumiy qoidalar

- 7.1 Ushbu shartnoma Xitoy qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi va talqin etiladi. Sudlar u bilan bog'liq holda yuzaga keladigan har qanday tortishuvlarni eshitish bo'yicha alohida yurisdiksiyaga ega.
- 7.2 Agar ushbu shartlarda biron-bir qoida to'liq yoki qisman yaroqsiz sanalsa yoki bajarilishi imkonsiz bo'lsa, qolgan barcha shartlar amal qilinishda davom etadi va bajariladi.

Siz bu bilan qo'shimcha ravishda quyidagilarga rozilik berasiz:

### 1. JAVOBGARLIKKA TORTMASLIK va HUQUQLARDAN VOZ KECHISH

DPM Events, MoneyGram yoki ularning a'zolari, agentlari, xodimlari, merosxo'rlari yoki tayinlangan shaxslarga nisbatan mening MoneyGram Goal turnirida ishtirokim doirasida, jumladan, DPM Events, MoneyGram, BOSHQA TOMONLAR, BOSHQA QATNASHCHILAR TOMONIDAN BEVOSITA YOKI BILVOSITA YETKAZILGAN tana jarohati, o'lim, mol-mulkka zarar yoki menga yoki menga qarashli mulkimga yetgan boshqa shu kabi zararlar sabab har qanday yo'qotish yoki zarardan va ma'lum yoki noma'lum bo'lgan har qanday shikoyatdan, da'vodan, da'vo natijasidan voz kechish;

### 2. KAFOLAT BERISH, SAQLASH VA ZARAR YETKAZMASLIK

DPM Events, MoneyGram yoki ularning a'zolari, agentlari, xodimlari, merosxo'rlari yoki tayinlangan shaxslarga nisbatan mening MoneyGram Goal turnirida ishtirokim doirasida, jumladan, DPM Events, MoneyGram, BOSHQA TOMONLAR, BOSHQA QATNASHCHILAR TOMONIDAN BEVOSITA YOKI BILVOSITA YETKAZILGAN tana jarohati, zo'raki o'lim yoki menga yoki boshqa yo'qotishlar, zararlar yoki xarajatlardan keladigan zararlardan asrashga kafolat berish, saqlash va zarar yetkazmaslik;

### 3. TASDIQLASH

MoneyGram Goal turniri xavfli bo'lishi mumkinligini va jarohat, jiddiy shikastlanish, falajlik, o'lim xavfini ichiga olishini hamda ushbu turnirda ixtiyoriy ravishda ishtirok etayotganimni tasdiqlayman;

### 4. QONUN

Ushbu Shartnoma Xitoy qonunlari bilan tartibga solinadi va har qanday nizolar uning mutlaq yurisdiksiyasi ostida ko'rib chiqiladi;

### 5. JISMONIY HOLAT

Men surunkali kasalliklar, nogironlik, yelka og'rig'i, yurak-qon tomir kasalliklari, jarohatlar; yoki boshqa biron bir jismoniy yoki ruhiy muammo, kamchilik yoki kasalliklar bilan og'rimaganligimga va dunyoning hech qaysi davlatida jinoyat sabab sudlanmaganligimga kafolat beraman;

### 6. ROZILIK

DPM Events bo'yicha quyidagilarni kafolatlayman, tasdiqlayman va qabul qilaman:

- a) DPM Events va uning huquqiy vorislari, litsenziyalar va vakolatli shaxslari kadrlarda yoki ovoqli yozuvda o'rin olgan nomimdan, o'xshashligimdan, ovozimdan, tarjimai holimdan va mening o'zim yoki boshqalar bilan hamkorlikda yaratgan yoki sahnalashtirgan va ijro etilgan yoki etilmagan har qanday adabiy, dramatik, musiqiy yoki badiiy asarni, ularni Mahsulotga qo'shish orqali va MoneyGram Goal turniri va hozirda mavjud bo'lgan va kelajakda kashf etiladigan har qanday ko'rinishda, butun dunyo bo'ylab, Mahsulot uchun mualliflik huquqi davom etadigan vaqtda, jumladan, yangilanishlar, qayta tiklash, tahrirlash, ilk holiga qaytarish va uzaytirish va qonunchilik bo'yicha ruxsat etilgunga qadar uning ovoqli yozuvi (Mahsulot) va undan olingan matnlar, treylerlar va barcha turdagi media mahsulotlardan foydalanish orqali ishlatish huquqiga egalar;

- b) Men DPM Events va uning huquqiy vorislariga, litsenziyalariga va vakolatli shaxslariga kinofilmlar va ovoz yozish uchun barcha Ijrochilarning mulk huquqimni va ijara huquqlarimni litsenziyalashga hech qanday shartlarsiz ruxsat beraman va DPM Events, uning huquqiy vorislariga, litsenziyalariga va vakolatli shaxslariga 6 (a)-moddasi qoidalariga muvofiq, bunday kinofilmlar va ovoz yozuvlarini ekspluatatsiya qilishga ruxsat berish uchun dunyoning har qayerida amalda bo'lgan qonunlar doirasida joriy qilingan yoki kelgusida amalda bo'lgan boshqa qonunlarga muvofiq talab qilinadigan roziligimni beraman;
- c) Men, hozir yoki kelajakda dunyoning har qayerida qabul qilinadigan har qanday qonunlarga ko'ra, hech qanday shartlarsiz hozir yoki kelajakda bunday kinofilmlar va ovozli yozuvlarni Mahsulotga kiritish masalasida menga berilishi mumkin bo'lgan barcha huquqlardan voz kechaman.

Ushbu Shartnomaning maqsadlari doirasida:

- a) "Ijrochilarning mulk huquqi" 1 (a) bandda qayd etilgan filmlar va audio yozuvlarda mavjud bo'lgan mening har qanday harakatimga nisbatan Xitoyning tegishli qonunlarida ko'rsatilgan huquqlarni anglatadi
- b) "Ijara huquqlari" barcha mualliflik huquqi ishlari va/yoki harakatlar bilan bog'liq ravishda Xitoyning tegishli qonunlarida belgilangan mening barcha ijara va qarz berish huquqlarini anglatadi, shu bilan birga ular kinofilmlarida va ovozli yozuvlarida 6(a) bandga muvofiq amalga oshiriladi.

## **7. KAFOLAT**

Men quyidagilarga kafolat beraman va tasdiqlayman:

- (a) ushbu Shartnomaga zid kelishi mumkin bo'lgan hech qanday kelishuvga kirmaganman va kirmayman
- (b) DPM Events'ning yozma roziligisiz, Mahsulot yoki MoneyGram Goal turniriga oid biron-bir ma'lumotni oshkor qilmasligim yoki e'lon qilmasligim yoki biron bir bayonot bermasligim lozim hamda DPM Events'ning yozma ruxsatisiz Mahsulot yoki MoneyGram Goal turnirini yoki Mahsulotda yoki MoneyGram Goal turnirida ishlaydigan shaxslarning hech qanday fotosuratlarini biron-bir ovozli yozuv, audio, vizual, yozma yoki boshqa ko'rinishda e'lon qilishim mumkin emas va bunday fotosuratlar DPM Events mulki hisoblanadi
- (c) har qanday inson mening Mahsulot yoki MoneyGram Goal turnirida ko'ringan nomimdan yoki menga o'xshash inson qiyofasidan foydalanib tovar va xizmatlarni reklama qilish, sotish, qadoqlash yoki namoyish qilish yoki biror g'oyani pullash huquqini qo'lga kiritishi mumkin bo'lmasligi uchun uchinchi tomonlar bilan kelishuv qilmasligim kerak
- (d) ushbu Shartnomada mavjud bo'lgan hech narsa, DPM Events'ga Mahsulotni ishlab chiqarish yoki MoneyGram Goal turnirida ishtirok etish bilan bog'liq rasmlarini ishlatish yoki ularni butunay yoki qisman Mahsulotga qo'shish majburiyatini yuklamasligini tasdiqlayman va qabul qilaman

Men MoneyGram Goal shartlarini o'qib chiqdim va ularni tushundim hamda ushbu shartlarga rioya qilishga roziman.

Jamoa nomi: \_\_\_\_\_

Ism-sharif:

Imzo 1 \_\_\_\_\_ Sana

Ism-sharif:

Imzo 2 \_\_\_\_\_ Sana

Ism-sharif:

Imzo 3 \_\_\_\_\_ Sana

Ism-sharif:

Imzo 4 \_\_\_\_\_ Sana

Ism-sharif:

Imzo 5 \_\_\_\_\_ Sana

Ism-sharif:

Imzo 6 \_\_\_\_\_ Sana

Ism-sharif:

Imzo 7 \_\_\_\_\_ Sana

Ism-sharif:

Imzo 8 \_\_\_\_\_ Sana

Ism-sharif:

Imzo 9 \_\_\_\_\_ Sana

Ism-sharif:

Imzo 10 \_\_\_\_\_ Sana